

Turkistonning qorong'u bir go'shasida... nomlik bir uezdni shaharda Hoji Ahmad ismli 60 yashar bir kambag'algina sartarosh hoji bor edi. Aning xotuni chaxo'tka (sil) kasaliga mubtalo bo'lub, to'quz oy qadar xastalik to'shagida yotgandan so'ngra vafot bo'l'gon edi. Ul xotundan Muhammadiyor isminda bir o'g'il tug'ilgan edi. Hoji Ahmad o'z shahrida "Hoji sartarosh" deb mashhur edi. Aning hojilig'ining bosh sababi 15 yashar ekan vaqtida otasi ila hajga borgan edi. Otasi hajda vafot topkandan so'ngra "yolg'uz o'zi Misr, Istanbul, Fas-Marokash, Bulujiston, Bag'dod, Eron va Afg'oniston taraflarni va ichki Rusiyani o'n yil qadar sayohat qilub qaytb-kan edi. Sayohatdan qilg'on foydasi forscha, arabcha, ruscha va inglizcha tillarda suylamakg'a qodir bo'ldi. Ammo o'zining nodonligi sabab bo'lub sayohatda ko'b mashaqqatlar ko'rganligidan o'g'li Muhammadiyor o'quv yoshiga yetar-etmas butun kuch va quvvati ila ani o'quturg'a harakat qildi. Muhammadiyor o'n yoshiga yetkanda ichkari Rusiyadan Ufa madrasai Oliyasiini biturgan bir muallim kelub qoldi. Bu shaharda bir-ikki hafta turgach, xalq og'zidan gazet o'qiydirgan va "etnish ikki tilni biladirgan" hoji sartaroshning shuhratini eshitub, ko'rushmoq uchun Hoji Ahmadning sartaroshlik do'koniga keldi. Muhammadiyor ham shunda o'turgan edi. Otasining ishorati ila o'rnidan turub kamoli ta'zim ila ko'rushdi. Hoji Ahmad ila muallim afandi uzoq so'ylashub o'turdilar. So'z orasida muallim afandiga Hoji Ahmad:

- Menim bisotimda shul birgina o'g'lim bor. Buni zamona iqtizosincha* o'qutmoqni xohlayman. Agar qabul qilsangiz shunda, bizim havlimizda turub shunga yaxshigina milliy tarbiya bersangiz, so'ngra hukumat maktablarida o'qutsam, - deydi. Muallim biroz fikr qilub turgach, o'qutmakni qabul qildi. Hoji Ahmad do'konini yopub, muallimni havlisiga olub keldi. Muallimda yosh Muhammadiyor kamoli shavq-zavq ila o'qumakda edi va bo'sh vaqtlanini ham - O'qumagan bolalar kabi choyxona, bazm va fahshxonalarda yurmey - bir rus ofitserining taxti "rayosati"da tarbiyai badani o'yinlari ijro qilmakda va foydali kitoblar mutolaasi ila o'tkarmakda edi. Bu tariqada bir yil g'ayrat ila o'qudi. Bu muddatda butun ahkomi islom, tarix va jug'rofiyolarni mukammal bildi. Bir yildan so'ng Hoji Ahmad sevikli o'g'lini hukumat maktablariga bermakchi bo'ldi. Oh... faqat pul yo'q edi! Shu pulsizlikli juda ezmakda va bechora bolani allaqancha fazl va kamolot, ilm va urfondan quruq va mahrum qo'yemoqda edi! Nochor muallim afandisi ila barobar yordam qilmaklarini o'tunmak uchun shahar mo"tabaroni huzurlariga bordilar. Ba'zi boylar muallimning qiyofasini ko'rgan hamon eshidigan kirg'uzmasdan haydamakda va ba'zilari qabul qilmakda edi, ba'zi birlari esa, Muhammadiyorning chiroylilikliga qiziqub birmuncha oylik ila o'ziga mirzalik va mahramB-likg'a so'ramakda edi. Faqat bizim Hoji Ahmad bularning qiladirgan kirdikorlardan xabardor bo'lGANI uchun sevikli o'g'lini bermas edi. Bechora Hoji Ahmad boylardan yordam umid qilmakni tashlab, boshqa yo'llar izlamakda edi. Bu vaqtida shaharda katta to'ylar bo'lmakda, qimorbozlar, mastlar bir-birlarin pichoqlashub, inson qonlari "jaholat!! jaholat!!!" deb oqmakda edi!.. Birdan-bir bo'lgan shogirdlarga yordam jamiyati aqchasizlikdan to'qtagan edi!

Bu orada muallim afandi ketmoqchi bo'lub hozirlandi. Kech soat 9 larda Hoji Ahmad o'g'li ila birlashub muallim afandini kuzatmak uchun vagzalga chiqdilar. Kuzatub qaytub yotkanda bir joyda qimorbozlar pul talashub mushlashmakda ekan. Hoji Ahmad kelub nasihat qilub ayira boshlagandan so'ng, birisi kelub Hoji Ahmadni bo'g'ub o'ldurdi va Muhammadiyorni yarador qildi. Hoji Ahmad o'lur vaqtida Muhammadiyorga qarab:

- O'g'lim!.. Meros sen... ga... O'lтурган... joy... Vasiyatim... O'qu... O'... qu... O'qu... O'qu... Men... r-r-r... zomen, - deb jon taslim qildi.

Muhammadiyor o'lduruvchilarning bir-ikkisin tanub, har nima qilub bo'lsa ham o'ch olmoqni qasd qilub ko'rdi. Lekin otasini o'lduruvchilar bular bo'lmay, balki jaholat ekanligini o'ylab tinchgina otasini ko'mdi. Va o'zi jaholat ila chindan olishmoqga qaror qildi. Jaholat ila olishmoqning quroli, asbobini esa otasi aytub ketkan edi. Ya'ni, jaholatga qarshu to'p, miltiq, toponcha, xanjar, o'q-doru yolg'uz - O'quv, o'quv, o'quv edi!!!

Bir tarafдан otasining vahshiyona bir suratda o'dirilg'onligini va bir tarafdan ilm va ma'rifat ila dunyoga nom chiqarg'on vatani Turkistonning jaholat daryosida sevina-sevina suzganini ko'rgan Muhammadiyor xafachilikdan sil(chaxo'tka) kasaliga yo'ludqi. Tamom sil bo'lub yetmasa ham, sillik asari yuzinda zohir bo'la boshladi. Bu orada shaharda bir katta o't chiqub, musulmon mahallalaridan 6-7 mahalla kuyub, musulmonlar sohiblari ko'chalarda och-yalang'och qoldilar. O'rtada bir armani mag'azini kuygan bo'lsa ham, armani mag'azinini istraxavayt* etdirilganlikdan zarar oz edi. Oh... bizning musulmonlar-chi? Bizning musulmonlar istraxavaytning nimaligin bilmaydurlar edi. Bilganlari harom, deb qildirmagan edilar... Bu hollarni ko'rganda odam qandog' chidab tuolsun? Qaysi vijdon bunga tahmil* qilsun? Bechora Muhammadiyor bu hollarni ko'ruba kasali yana ziyodalanmakka boshladi. Shaharning yangi shahar qismida "Ibrat" nomli teatruda "Ichkulik va aning vahim natijalari" nom ibratlil bir kartina* ko'rsatilur edi. Har qancha holini bilsa ham chiday olmadi. Bu badbaxt ichkulik natijasini ko'rmak uchun oshiqub kechni kutdi...

Nihoyat, oqshom namozidan so'ngra piyoda "Ibrat" teatriga qarab yurdi. Teatr ichkarisinda "Ichkulik va aning vahim natijalari"ni ko'rsatub yarmiga yetkanda, teatr bog'ida bir toponcha ovozi chiqdi... Kartina to'qatilib, hamma xalq tashqariga yugurdi. Bechora holsiz Muhammadiyor ham xalq orasida tashqariga chiqmoqda edi. Chiqdi. Qaysi ko'z bilan ko'rsun!.. Shaharning musulmon boylaridan ikkisining o'g'li teatr bog'chasida mast holda qarta o'ynab o'liturub ozgina pulni talashub turub birisi toponchasin chiqarub birisiga otub yuborgan. Otuvchini ushlab, majruhn xastaxonaga yuborsalar ham, majruh yo'lida jon bergan. Otuvchi ham teatr bog'chasida bu holga hayron bo'lub o'z-o'zin otgan...

Ikki musulmon jaholat sababli yosh-yosh bu dunyoga vido qildilar.

"Ichkulikning vahim natijalari" haqiqat bo'lub ko'rildi...

Bu hollarni ko'rgan Muhammadiyor ham hushsizlikdan yiqildi. Muhammadiyorni politsa shahar xastaxonasiga olub bordi... Muhammadiyorning otasi yo'q, onasi yo'q, qavm-qarindoshi yo'q... kim kelub holidan xabar olar?! Oh, yolg'uzlik... oh, yetimlik... Oh, bunlarga sabab bo'l'gon jaholat... Ket! Yo'qol!.. O'l!..

Bir oy qadar shahar xastaxonasida davolangandan so'ngra Muhammadiyor yaxshi bo'lgan erdi. Xastaxonadan chiqqan vaqtida do'xturlar davolanmoq uchun Qofqoziyag'acha borarg'a ham shul taraflarda turub o'qurg'a taviysi qildilar.

Muhammadiyor puli yo'qligini kuch hol bilan do'xturlarg'a bayon qildi... Do'xturlar biroz mushovaradan* so'ng Muhammadiyorga bir xat berdilarki, bu xat bilan butun Qofqoziya xastaxonalarinda borub davolanub yotsa ham bir tiyin haq olinmas edi...

Muhammadiyor xastaxonadan chiqub havlisiga keldi... Havlisida hech kim yo'q: na ota bor, na ona bor... ne qo'rqinch manzara!.. Havlini 6 oyga bir rusga 225 so'mg'a ijara qo'yub, kech soat 7 da istansag'a qarab yuruvdi, kelsa, po'ezd ketgan...

Ertal bilan soat 9 dagi po'ezdga qoldi... Mahzun holda yana uyg'a qaytub, o'z xonasidagi rusda bir kechalik mehmon bo'ldi...

Ertal bilan soat 8 da istansag'a chiqub, po'ezdni kutub turdi. Nihoyat, XX asr madaniyati keldi ajdar kabi pishillab, har tarafga suv chochub... Muhammadiyorni vatanidan ayrimoqchi edi. Istansada bir g'arib manzara ediki, Muhammadiyorning ko'nglini buzmoqqa boshladi: bir musulmon xurjun yo'qotgan! Biri boraturg'on istansasin nomini bilmay, boshqa istansag'a bilet olub

qo'y'on... va shunga o'xshash dahshatli manzaralar oldida Muhammadiyor qotub qoldi. Nihoyat, ikkinchi zuvano'k urilganda, chiqub uchinchi klasdan* joy topub o'lturdi. Haligi qo'rqinch manzaralar bunda andin ham ziyoda hukm surmoqda edi: bir musulmon birisi bilan urushub burni qonag'on, bir musulmonni po'ezd ma'murlari tutub olub uradirlar... Muhammadiyor chidayolmadi. Po'ezdning tashqarisig'a chiqub tikka turub istansani tomosha qila boshladi. Bir armani Qofqozning qorong'u go'shalarindan kelub, istansada do'kon ochub, boy bo'lub ikki o'g'lini hukumat maktablarida tarbiya qilmakda... Va yerli musulmonlar esa topkan pullarin to'yg'a, janozag'a sarf qilub faqirlikda, xorlikda qolmoqda edilar. Yana ko'ngli buzuldi, yana diqqatlik, oh... O'yg'a botdi. Bir vaqt uchunchi zuvano'k ham uruldi. XX asrning otsiz arobasi yuraman deb bir qichqirub, ilgariga qarab harakat qila boshladi... Ya'ni Muhammadiyor muqaddas vatanidan ajrab yot ellarg'a borub, yot bir maishatg'a* qarab yurar edi. Uchinchi (klas - red.) po'ezdning ichiga kirub biroz ul taraf-bul tarafg'a aylanub yurdi. Boshi tamom Turkiston haqinda fikrlar, o'ylar ila to'lgan edi... Birozdan bir ovoz keldi:

- Muxamed'-yar!

Qaradi. O'ziga tarbiyai badaniya ta'lif bergan rus ofitseri Pyotr edi. Muhammadiyor borub ko'rushdi va ofitserga:

- Qayg'a borasiz? - dedi.

Ofitser:

- Men bir askariy ish bilan ikkinchi istansag'a tushaman. Siz qayda borasiz? - deb savol qildi. Muhammadiyor biroz o'ylab turgandan so'ng:

- G'urbatga!

- Nima uchun?

- O'qumak... O'qumak... O'qumak uchun, - dedi.

Muhammadiyorga "Otangiz salomatmi?" deb ofitser bir savol berishig'a qarshu, u ko'zlaridan yosh oqizub:

- O'ldi... - deb javob berdi.

Bu so'zni eshitgach ofitser ham ko'zlaridan marhamatli yoshlarni oquzdi. Muhammadiyor ofitserdan bir durbin so'rab olub balqo'ng'a* chiqdi. Vatanning tuprog'i ustina suvlarin chochub, atroflarda o'turgan yerli musulmonlarning diqqatin jaib qilub yurmakda edi. Muhammadiyor durbin ila uzoqdagi tog'larga qarab turub, ko'z yoshlarni oquzub tog'larga va o'zining orqasida qolq'on vataniga xitob qilub:

- Ey, Chingiz va Temur askarlarini ko'rgan qop-qora tog'lar! Ey, vatanim Turkistonning eski davrini ko'rgan tog' bobolar!

Chin aytin! Bu yigirmanchi asr madaniyatini ham ko'rub turubsiz! O'n kunlik yo'lni o'n soat qilg'on bu yigirmanchi asr madaniyatining ayg'irini ko'rub vatandoshlarim nimaga og'izlarin ochub qoladilar? Nimaga bu madaniyatga kirmakka o'zları harakat qilmaydilar? Qachongacha ikki g'ildirakli, ko'chalarda sig'maydirgan arobalar?

Ey, vatandoshlarim! Qachong'acha bu g'aflat? Nimaga buncha xushyoqmassizlar? Axir sizlar ham odam-ku! Odamlardek harakat qilingizlar! Ko'z oldingizga kelub turg'on ilm va ma'rifat mevasidan foydalananmasdan nimaga og'izlaringizni ochub qarab turasizlar? Nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar? Uyqidan ko'z ochinglar! Uyqidan ko'z ochinglar! Urinunglar! Ilm, ma'rifat va hunar izlanglar! Vaqt yetdi, balki o'tdi! - der edi.

Kech soat 7 da ofitser ila Muhammadiyor vidolashdi va o'zining joyiga kirub uyquga ketdi.

Bir necha kundan so'ngra Muhammadiyor o'zini Bokuning katta istansasida ko'rди. Qo'lida tugun va boshqa narsalari bo'limganligidan tezlik ila po'ezddan tushub, bir arobag'a o'lturub shahar ichiga qarab yurdi. Musulmon milio'nerlari, musulmon boylari, necha turli jamiyatlar, boylarning xayriyat yo'liga milio'nlab ionalarila mashhur Boku shahri Muhammadiyorga ajib tuyular edi. Bokuning birinchi gazitalaridan bo'lg'on va butun islom shaharlari ketadirgan kundalik (o'n sahifa) "Qofqoz" nomli gazita idorasiga kirdi. Mudiri ila ko'rishdi. Mudirga hamma ahvolni ochiq tushundirdi, u chorasiqa kirishurman, deb javob berdi. Muhammadiyor shaharni kezmaq uchun idoradan chiqdi. Kech bir milio'ner tarafidan sharq usuli me'moriysida bino qiling'on "Bahri Hazar" nomli no'mirda qo'ndi. Erta birlan mashhur bir kitobxonadan bir no'mir "Qofqoz" gazitasin oldi. Bosh tarafida shul e'ltonni ko'rди:

e'LON

Jamiyat xayriya islomiya tarafidan qo'shnimiz bo'lg'on Turkistondan ilm izlab kelguchi 14 yoshlik Muhammadiyor ismli bir dindoshimizni hukumat maktablariga berib, jamiyat xayriya hisobiga o'qutmoqchimiz. Shul to'g'rida bu kun kech soat yetti yarimda "Jamiyat xayriya"da majlis bo'lador. Muhtaram a'zolarning mazkur vaqtida kech qolmasdan hozir bo'lmaklari kerakdir. Muhammadiyor afandi ham hozir bo'lsunlar!

Ehtirom ila jamiyat mudiri...

Kech soat yetti yarimda biroz a'zolar maslahat qilg'onlaridan keyin Muhammadiyorni oliv tahlilgacha jamiyat o'z hisobiga o'qutmoqg'a qaror berdi. O'qushni tamom qilg'ondan keB=yin ikki yilg'acha Boku va atrof qishloqlarda leksiya o'qumak shart qilindi. Emdi Muhammadiyor baxtiyor o'lmissiz va baxt qushini qo'liga qo'ndirmish edi.

Buncha tortkan mashaqqatlarining mevasin bundan keyin yeyajak edi.

Vatan va millatina moli va joni ila xizmat qilajak edi...

O'z vatanidan va o'z vatandoshlaridan yordam ko'rмаган Muhammadiyor Boku yoshlarning himmatlari ila umidiga yetushdi.

Ya'ni, shahar maktabiga doxil o'ldi. Demak, eng muqaddas amaliga yetdi. Endi oz bo'lsa ham o'zini xor qilg'on vatan va vatandoshlarig'a xizmat qilajak edi. Muhammadiyor qayda bo'lsa ham o'z vatanini, o'z yurtini va o'z joyini tushunar va yig'lar edi. Bir kun kech, asr vaqtida shahar bog'chasiga kirub, iskamiyada o'lturub gazita ko'rар edi... bir yeriga ko'zi tushdi. Ko'rdiki:

"TURKISTONDA BIRINCHI MARTABA TEATR"

O'qub bitirdi-da, shodlig'idan qayda o'turganini unutub sakrarga boshladi... Shul vaqtida yoniga Boku yosh muharrirlarindan* bir do'sti kelub o'ltirdi. Muhammadiyorning sakranganini ko'rub hayron bo'ldi, etagindan tortub iskamiyaga o'lturg'uzub:

- Muhammadiyor afandi! Nima bor bu qadar sevinch? - dedi.

Muhammadiyor yolg'uz:

- Turkistonda birinchi m....m....m....artaba tia....t....t....tr, - dedi-da, fikrg'a toldi. Bokuli muharrir biroz o'turub, turub ketdi.

Muhammadiyor bir vaqtida turub qarasa, kech soat 12 bo'lubdur. Bog'chada hech kim qolmog'on. Muhammadiyor turub bog'chadan chiqdi. Imtihon vaqtida yaqin bo'ldig'idan Muhammadiyor kecha va kunduz harakat bilan chalishmakda edi. Nihoyat, imtihon bo'lub o'tdi. Muhammadiyor birinchi bo'lub o'tdi. Muhammadiyor birinchi bo'lub imtihon berub chiqdi. Muhammadiyor kecha-kunduz timmay harakat qilg'onlikdan yengil bir xastalik arz bo'la boshladi. Tabiblar tavsiysi ila Borjo'm suvlariga borub bir oy qadar davolanub, tuzalub qaytdi. Yana shul Boku jamiyat xayriyasining yordами ilo Muhammadiyor Boku gimnaziyasiga

kirdi. Muhammadiyor gimnaziyag'a kirkandan keyin gimnaziya darslarig'a shul qadar muhabbat qo'yidiki, bayram kunlarida ham chiqmas edi. Soat o'tdi, kun o'tdi, yil o'tdi... Muhammadiyoring gimnaziyadan ham chiqar vaqt yetdi. Nihoyat, imtihon ham bo'lub o'tdi. Gimnaziya imtihonida ham Muhammadiyor biringchi chiqub oltun medal oldi. Yana Jamiyati xayriya yordami va Boku boylarining himmatlari ila Petro'g'rad dorilfununing tib sho"basiga kirdi. Muhammadiyor dorilfunung'a kirkandan so'ng ikkinchi yili vatani Turkistonning madrasa shogirdlari hayotindan olub "Umrik shogirdlar"1 nomli bir ro'mon yozdi. Ro'moni 12 juz*² bo'lub, Turkistonda hanuz mundog' milliy maishatdan olingen katta ro'mon chiqmag'on edi. Hattoki bu ro'mon Petro'g'radda muntashir* rus jurnallaridan birisida ruscha tarjima etulub bosildi. Bu ro'mon shunday mohirona yozilg'on ediki, madrasada qirq-ellik yil turganda ham mundog' yaxshi va shogidlarning madrasada o'qumay samovarlarida davr surg'onliklarini yozmoq mumkin emas edi. Dorilfununni tamom qilub chiqishig'a bir yil qolg'onda poytaxt, chunonchi, Maskav va Petro'g'raddag'i turkistonli maskavchi boylar hayotidan olub "Poytaxt mehmonlari" nomli bir teatru kitobi yozdi. Bu kitobda ilmsiz boylarning poytaxt no'mirlarinda til bilmay, ilm bilmay va ajnabiylar tarafindan o'zlarig'a qiling'on haqoratlar g'oyat mohirona suratda ko'satilmish edi. Bu kitobni ham Muhammadiyor o'zi ruscha tarjima qilub nashr qildi. Petro'g'rad teatrularindan birisida ba'zi bir istudent rafiqlari ila o'zining maishatini ta'min qilmoq uchun sahnaga qo'yub, kitobda eng biringchi bo'lg'on xo'jayin ro'lini Muhammadiyor o'zi olub, ko'b olqishlarga muzohir bo'ldi. Bir teatrdan rasxo'ddan tashqari o'z maishatig'a sof foyda bo'lub 3000 so'm qadar qoldi... Nihoyat, imtihon vaqt yetub, Petro'g'rad dorilfununing tib shu'basidan biringchi bo'lub imtihon berub, do'qturlikka shahodatnoma oldi... Yana vatanig'a qaytmadi. Bokudagi himmatli boy va o'zining teatrdan oldig'i pullari ila bu turkistonli shogird Shveytsariya (Isveychara) dorilfununlarig'a tajriba uchun yugurdi. Petro'g'rad vag'zalinda kechki po'ezddan butun maktab orqadoshlari Muhammadiyorni uzatmaqdalar edi. Bir turB-kistonli kambag'al bola harakat va g'ayrat orqasinda Rusiya ulug' maktablarin bitirub Ovruponing eng olg'a ketgan mamlakatlaridan Isveycharag'a o'qumoqqa ketadur...

Mana g'ayrat samarasi, mana g'ayrat mevasi, mana harakat gullari... ibracht... ibracht... Mana "Jamiyat xayriya" foydasi, mana ittifoqlik samarasi, mana birlik mevasi...

Bizning Turkiston bolasi nihoyat "madaniyat yo'rg'asi" ila Isveycharaning poytaxting a borub dorilfununning tib sho"basina some' yozildi. Bechora shogird 7 sana Isveycharada ochlik va to'qlik bilan sabot va sabot ila turdi. Nihoyat, Isveycharadan ham qaytarg'a yo'lg'a chiqub Italiyo - Turkiya - Rumoniyob'B" Bulg'oriyo tuproqlari ila aylanub Odesga, Odesdan to'g'ri Toshkand va Toshkanddan Bokug'a keldi. Boku vag'zalinda butun Boku yosh ziyoilari Muhammadiyorni qarshi olub o'zining ma'naviy otasinikig'a olub tushushub, Muhammadiyoring sharafina 50-60 kishilik bir ziyofat berishdilar. Muhammadiyor Bokuda ochilg'on Islom tib qursinda 3 yil muallimlik qilub, o'z vatani Turkistonga qaytmoqchi bo'ldi. U andagi ma'naviy otasindan ruxsat olub, jaholat daryosinda sevina-sevina suzmakda bo'lgan vatani Turkistonga qaytub, qo'ldan kelgan qadar xizmat qilmoqqa maslahat so'radi. Ma'naviy ota ruxsat berub, kechki paraxo'd iskalasida* Boku yosh ziyoilari uzatmoqdalar edi. Ma'naviy ota ustig'a "Boku yodgori" yozilg'on bir oltun soatni Muhammadiyorga berub, andagi ziyoilarg'a qarab bir qisqa nutq o'qushini Muhammadiyordan tiladi. Muhammadiyor paraxo'd ustidan turub ziyoli yoshlarga xitob qilub, qisqacha bir nutq o'qudi. Hozirdan Muhammadiyorni chuchuk ovozlari ila olqishlab, chechaklar irg'itmoqqa boshladilar. Nihoyat, paraxo'd hushtak berub, dengiz suvlarini to'lg'alandirub Turkistonga qarab yurdi...

Muhammadiyoring paraxo'd ustida ziyoilarg'a xitoban o'qugan nutqi:

- Ey, ma'naviy akalarim! Ey, ma'naviy otalarim!..

Men bir faqir shogird edim, keng Turkistonning eng qorong'u go'shasindan ilm va ma'rifat istab shahringizg'a keldim. Siz himmatlularning himmati millatparvaronalarigiz ila tahsilimni Rusiya dorilfununlaridan o'tub, Ovrupo dorilfununlarig'a qadar yetkuzdim. Ishta bu hammasi "Jamiyat xayriya" va "Nashri maorif" jamiyatlarining samarasidur. Men ham vatanimga bordigim ila qo'llarimni shumorub jaholatda qolgan qardoshlarining uyg'otmoq va turg'uzmoqqa g'ayrat qilamen. Ma'naviy shahrim bo'lgan Boku va ma'naviy aka va otalarim bo'lgan sizlarga samimi tashakkurlarimni arz edub, u jaholat daryosining ajdar va baliqlari bo'lgan biz turkistonlilarining uyg'onmoqimiz va yo'l topmoqimizg'a yordamlashmagingizni hammalariningidan rijo etaman. - So'zi shul yerga kelganda, paraxo'd sekin-sekin qo'zg'almoqda edi. - Xayr yashangiz, sog' o'lungiz otalarim, akalarim va suyuklu og'alarim! - deb nutqini bitirdi.

"Madaniyat balig'i" sunvi o'rtasindan yorub bir dohiyni va bir xodimni vatanig'a sudrab olub ketar edi. Nihoyat, latif havoli bahor faslidida daraxtlar chiqarg'on barglar kabi ko'm-ko'k, millat dardida yo birorta nozanining ishqida va yo birorta xonimning changalida ezilib yuraklari qizil gul kabi to'lganlarga eng biringchi tasalli beradirgan va onlarg'a buyuk ruh va umid beradirgan to'lqunli dengizdan vahshiy (yovvoyi) odam degan bir narsa yashagan yer yuzig'a chiqdi. "Madaniyat yo'rg'asi" g'a mindi. Qani haligi yumshoq latif havoli dengizlar va suvlar? Qani haligi dengiz suvlarin to'lqunlatub yuradurg'on shamollar? Qani 3 - 4 yil avval Isveycharada, Fransiyada, Italiyoda, xususan, Alp tog'lariida ko'rilgan latifliklar? Qani Alp tog'lari ustida ishlab topgan pulig'a va dunyosiga to'y qilmay, uloq chopdirmay, bachcha o'ynatmay, eshon-mullalarg'a va qorni yo'g'onlarg'a yaltiragan to'nlar kiyguzmay suyuklu o'g'lini o'qutgan va tarbiya qilgan Isveychara qishloqilari? Qani 7-8 qabatlik ziynatlik tog'lar qadar xonalar? Hozir onlar yo'q! Oni o'rniq'a pastgina xashak va loydan yasalgan binolar va onlarda safil bir holda yashagan musulmonlar!

Topganin bachcha, uloq va ichkulukka ham domla-eshon va boylarga shaldiratub to'n va zarboblar bergan, boylar qo'linda qul hukmida bo'lub yurgan o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar va hammasi musulmonlar...

Oh... Oh!.. Bu razolat va bu safolatni o'z millatida, o'z xalqida ko'rub, taraqqiy va tamaddunlarni ko'rmak, ko'bni bilgan, ko'bni ko'rgan va hamma narsadan xabardor Muhammadiyorg'a g'oyat og'ir tuyulur edi... Ba'zi vaqtarda ko'zindan yoshlar oqar edi. Oning ustiga vag'o'n ichinda pish-pish uxlagan va bilet yo'qotub kando'kturlardan tayoq yegan betartib yana musulmonlar edi. Ortuq Muhammadiyor sabr qilub tura olmadi. Po'ezdning balqo'nig'a chiqub uzoqlarda ko'rungan haybatlik qop-qora va ustlariga ko'm-ko'k maysalar o'sub chiqqon tarixiy tog'lar, ota-bobolarining davrlarinda onlarga buyuk-buyuk qal'alik hukmini olgan tog'lar, tepaliklar, balandliklar, suvlar, o'monlar, daraxtzorlar va qumzorlarni yaltiragan ko'zlarila ilo tomosha qila boshlad. Chiroylik manzaralari - uzoq-uzoq, buyuk-buyuk, yashil-yashil va baland-balad tog'lar Isveycharadan kam emas edi. Nahr-nahr oqub turg'on suvlar va nima eksa shuni olsa bo'ladurg'on mahsuldor tuproqlari ila Amriqodan hech kamligi yo'q edi. Ilmsiz boylari, johil olimlari, yolg'on eshonlari va isrofning koni bo'luvi ila hech bir narsag'a o'xshamas edi... Xitoylar ham bu daraja yalqov(xushyoqmas) emas edilar!..

"Xalq o'z foydasin anglasa, milliy maktab va madrasalar ochsa, Ovrupo dorilfununlarig'a bolalarin yuborsa, do'qtur, advokat, muharrir va hunarmand, savdogarlar va muhandis (injener)lar chiqsa, bunlarning har biri o'z vazifalarinda turub ishlarin tartibi ila yurguzsalar va xalB-qimizning foydasini kuzatsalar, naqadar oliv va naqadar go'zal bo'lur edi!" degan xayollar ko'ngliga kelur edi. Faqat bunlarni bo'lishig'a ko'zi yetmas edi. Chunki borgan sari orqaga qarab ketmakdamiz... taraqqiy asari hech ko'rulmasdan

This is not registered version of TotalDocConverter
bir faylo qayd qilish uchun shaxsiy kodi shaxsiga!

Yo'q, yo'q! Faqat Muhammadiyorga o'xshagan ziylilardan har shaharda bir-ikki chiqqa boshlasa, vujudga chiqar edi, deyarga ham bo'lur edi... Muhammadiyorning o'z shahrig'a kelguncha xo'b shu fikrlar ila boshi aylandi...

O'z shahrining istansasi ko'runa boshladi. Nihoyat, istansag'a ham kelub tushdi. Yurub-yurub yana o'z vatani va o'z joyiga keldi. Muhammadiyor ketgandan beri o'z shahridan ham 5-10 ziyyoli yoshlari yetushgan edilar. Muhammadiyorni onlar kutub oldilar. Arobag'a o'lolg'uzub eski shaharga to'g'ri yura boshladilar. Shaharning ruslar turadigan qisminda ajib darajada o'zgarishlar: yangi-yangi no'mirlar, bog'lar, bog'chalar, magazinlar, tiatrular, maktablar, "Metro'po'l", "Rosi", "Rusiya", "Maskva" no'mirlari, yo'llar tosh, ko'chalar keng, elektrik fonarlar Isveycharaga o'xshar edi!.. Faqat shaharning musulmonlar turadurgan qismi avval qanday bo'lsa, yana shunday erdi! Yana xafalik. Muhammadiyor o'z havlisining oldiga kelub tushdi. Hovlisining imoratlarini Ovrupo usulida solingen ko'rdi. Ul imoratlarni soluvchi u* 125 so'mg'a 4 oyg'a Muhammadiyordan ijara oluvchi rus ekan. Kirub Muhammadiyor rusga o'zin tanitdi. Rus Muhammadiyorg'a qarab:

- Sizdan men muni ijara 4 oyg'a oldim. Olti oy o'tdi - hech kim chiqmadi, bir yil o'tdi - hech kim chiqmadi. Uchinchi yilda men ushbu imoratni soldim. 5-10 ming so'm ketdi. Faqat bundan uch yil avval sarf qilgan pulimni imoratingizdan chiqarub oldim. Uch yildan berli uch ming so'mdan 9 ming so'm foyda qildum. Joyingizni tezlik ila bo'shatub beraman, ham qo'lingizg'a 5 ming so'm pul beraman, qolganini afu etasiz, - dedi.

Muhammadiyor:

- Agarda joyingiz bo'lmasa o'turub turung. Menga yolg'uz shul joydan ikki adad xona bersangiz bo'lur, - desa ham, rus:
- Menim boshqa yaxshi katta joyim bor, shunga ko'chaman. Men sizga 9 ming so'm qilgan foydamni bersam ham bo'lur edi, ammo 4 ming so'm orada ba'zi islohlariga ketdi, - dedi.

Muhammadiyor suyuna-suyuna rizo bo'ldi. Ertasi kuni rus hovlisini bo'shatub, 5 ming so'm berub ketdi. Muhammadiyor keng joyda rohat-rohat tura boshladi. Ostidagi magazinlarni yana ijara qo'yub, hukumatning ruxsati ila yuqori xonada bir xususiy shifoxona ochdi. Boylardan olub, hech narsasi yo'q faqirlarni pulsiz davolay boshladi. Har kuni 40-50 so'm do'qturlikdan husuli* bor edi.

Qishloqning bir yeridan ikki tanob keladirgan bir bog'cha olgan edi. Muhammadiyoring g'ayrati ham xudo bergan baxti ila neft (yoqiladirgan yog') koni chiqdi. Hozir Muhammadiyorg'a milio'nlar ila ish ko'rurga to'g'ri kelur edi. Bir tarafdan o'z ishlarini yo'lg'a qo'yub, ikkinchi tarafdan yonig'a 5 - 10 miqdori ziylilardan olub ruxsatli "Jamiyati xayriya" ochdi. "Jamiyati xayriya" ga o'zi ko'b oqcha berdi. Shaharda bir musulmon qirotxonasi ochildi. Uchinchi yili Muhammadiyor haftalik "Vatan" ismli bir rasmi jurnal ila "Xabar" ismB-li kundalik bir gazita nashr etarga boshladi. Muhammadiyor bir hunar maktabi ocharg'a tashabbuslar qilsa ham, ko'b monelar chiqub oni o'rniq'a yozlik muallimlar kursi ochilub, yoz vaqtida muallimlarga har xil ta'lim yo'llari, tarbiya usullari haqinda o'qutmoqlar va leksiyalar boshlandi. Shundog' qilib kichkina bir shaharda maorifxonalari ko'paymoqda va boshB~qa shaharlarga o'rnak bo'lmaqda edi. Butun turk-totor jaridalarinda Muhammadiyorni ismi "do'qtur xodimi millat Muhammadiyor" atalmakda edi...

1914